

SOMONIYLAR DAVRI MANBALARI TO'G'RSIDA

TDSHI BEKOV FERUZ

Annotatsiya

Mazkur maqola somoniylar davri manbalari masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda manbalarni to'rt guruhga ajratilgan:

- a) Asosan mahalliy tarixga bag'ishlangan asarlar;
- b) O'rta Osiyo tarixi haqida ma'lumot beradigan umumiy tarixiy asarlar;
- c) O'rta Osiyo haqida turli xil ma'lumotlarni beradigan umumiy tarixiy geografik asarlar;
- d) Arxeologik va numizmatik asarlar va ular tasniv va tavsif qilingan.

IX-X asrlarda hukmronlik qilgan Somoniylar sulolasi O'rta Osiyo tarixida alohida o'rin tutgan. Bu davrga kelib Xuroson va Movarounnahr dunyoning yirik madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylangan. Bugungi kungacha Somoniylar sulolasi haqidagi ma'lumotlar o'rganishni talab etmoqda. Sulola tarixini o'rganish hozirgi kunga qadar tarix fani oldida dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda. Zero, mazkur masalani hal etish uchun tarixiy manbalarni kengroq doirada tadqiqotga jalb etish lozim. Mazkur sulola haqida ma'lumot beruvchi manbalar asosan arab muarrixlari tomonidan yozilgan bo'lib turli davrga tegishli hisoblanadi.

O'rganilayotgan mazkur davrga oid turli sohalarga tegishli ko'plab manba va ilmiy asarlarni uchratishimiz mumkin. V.V.Bartold qayd etganidek "biz to'plagan Turkistonning somoniylar davriga oid malumotlarimiz nafaqat bugungi kun uchun balki, kelgusi davrlar uchun ham mukammal bo'lib qoladi".¹ Shu bilan birga bizning fikrimizcha bu davr tarixi hamda madaniyati tarixi va xususan ijtimoiy- iqtisodiy hayotiga doir ko'plab muammolar mavjud.

Manbalarni to'rt guruhga ajratish mumkin:

¹ Бартольд В.В. История Туркестана. – Ташкент 1922, с 11,12

- e) Asosan mahalliy tarixga bag'ishlangan asarlar;
- f) O'rta Osiyo tarixi haqida ma'lumot beradigan umumiy tarixiy asarlar;
- g) O'rta Osiyo haqida turli xil ma'lumotlarni beradigan umumiy tarixiy geografik asarlar;
- h) Arxeologik va numizmatik asarlar.

Birinchi guruhga tegishli asarlar qatoriga Buxoro vohasining ijtimoiy tarixi va Buxoro shahrining tipografik tarixi haqida muhim ma'lumotga ega bo'lgan Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asarini aytib o'tish muhim².

Ikkinchi guruhga ko'plab asarlarni kiritish mumkin. Umumiy tarix tipida yozilgan asarlardan biri IX asr siyosiy tarixi haqida ma'lumot beruvchi Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy(836-923)ning "Tarixi ar-rusul va-l-muluk" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi") asaridi. Tabariy asarining forsiy tahriri ham bo'lib u Somoniy Abu Solih Mansur ibn Nuhning vaziri al-Bal'amiy(vaf. 974) tomonidan 963 yilda arab tilidan fors tiliga tarjima qilib to'rt jildda chiqargan³.

Tabariy ma'lumotlarini to'ldiruvchi hamda IX asrga oid bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni qamrab oluvchi asarlardan al-Yaqubiyning "Kitob al-buldon" ("Mamlakatlar haqida kitob")⁴ va "Tarix" asarlaridir⁵.

Umumiy tarix xususan, X asrga oid qimmatli ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan Ibn al-Asir nomi bilan mashhur bo'lgan Izzuddin Abulhasan Ali ibn Muhammad(1160-1234)ning "Al-komil fi-t-tarix" asaridir⁶.

XI asr Xurosonning Tohiriylar, Safforiylar va Somoniylar davri tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi asosiy manbalardan biri Gardiziyning "Zayn ul-axbor"("Tarixlar bezagi") asaridir⁷. Hamdulloh Qazvinii(XIII-XIV asrlar)ning "Tarixi guzida" asarida Somoniylar tarixiga doir alohida bo'lim ajratilgan⁸. Mirxond(XV asr)ning "Ravzat us-safo" asarida ham bu sulola tarixi haqida

² Абу Бакр Мухаммад Наршахи Бухоро тарихи. Мерос тўплами. Тошкент 1991.

³ Балъами Тарихи табарий. Канпур 1847. Ruscha tarjiması: Беляев «История Табари» Т. 1987

⁴ Волина С. Извлечения из «Китаб ал-булдан» М.1939

⁵ Ibn-Wadhih qui dicitur al-Ja-qubi Historiae. Lugduni Batavorum. 1883

⁶ Ибн ал-Асир Ал-камил фит-т-тарих. Избранные отрывки. Перевод с арабского, примечания и комментарии П.Г.Булгакова дополнения к переводу, примечаниям и комментарием, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. Т.2006

⁷ Kitab Zainu'l Akhbar. Composed by Abu Said... Gardizi about 440a H., ed by Muhammad Nazim. Berlin, 1928 (E.G. Browne Memorial series, 1)

⁸ Gibb E.J. Memorial series, vol XIV (r I-II). Paris 1892

ma'lumotlar uchraydi⁹. Somoniylar sulolasining barham topish sabablarini aniqlashda voqealar shohidi Abulhusayn Hilol ibn Muhsin Sobiyning (vaf. 1056) asari muhim hisoblanadi¹⁰. Somoniylar sulolasi hukronligining oxirgi davri voqealari va Somoniylar sulolasi so'ngi vakili – Ismoilning Qoraxoniylarga qarshi to'qnashuvi shohidi bo'lgan tarixchi Utbiy(961-1022) asarlarida aks etgan¹¹. Somoniylarlarning so'nggi namoyandalari, ularning Xurosonda faoliyat olib borishi va Somoniylar qo'shini qudratli sarkardalari, Somoniylar bilan G'aznaviylar munosabatlari to'g'risida XI asr tarixchisi Abulfazl Bayhaqiyning mashhur "Tarixi Mas'udi" xabar beradi¹². Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy "Mafotix ul-ulum"("Ilmlarning kalitlari") ensiklopedik asarida ijtimoiy munosabatlar tarixi haqida ba'zi ma'lumotlar keltiradi¹³. U katta ahamiyatga ega yer egaligi munosabatlari haqida sharh bergan. Nizomulmulk "Siyosatnoma" asari 47 – 48 boblari qarmatlarning O'rta Osiyodagi harakati haqida mufassal malumot beradi¹⁴. Muallif shuningdek ijtimoiy munosabatlar, Somoniylar davlati siyosiy boshqaruvi, qo'shin tuzilishi va boshqalar haqida alohida boblar keltiradi.

Davr shoirlari va ular ijodi haqida qomusiy olim Abumansur Saolabiyning "Yatimat ad-dahr" yoki "Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl ul-asr" ("Asr ahlining fozillari haqida zamonning durdonasi") tazkirasida mukammal malumotlar keltirilgan¹⁵. Somoniylar davlati yashash tarzini ifodalagan asar ma'lumotlari ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur davr O'rta Osiyo ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tarixiga doir bo'lib, uchunchi guruh manbalari arabiyzabon adiblarning turli-tuman geografik asarlaridir. Ularda Movarounnahr va Xuroson viloyatlarining tabiiy geografiyasiga doir mukammal va ishonchli ma'lumotlar, shaharlar topografiyasi va ko'plab shaharlar, masofalari ko'rsatilgan yo'llar qatnovi, hunarmandchilik ishlab chiqarish

⁹ Defremery M. Historie des Samanides par Mirkhond. Paris, 1845

¹⁰ Розен В. Рассказ Хилая ас-Саби о взятии Бухары Бограханом. – ЗВОРАО. 1888. т. 2, вып. 3 и 4.

¹¹ Абу Наср Мухаммад ибн Абл ал-Джаббар ал-Утби Тарих-и Йамини. Извлечения// МИСЦА X-XIX вв. Т.1988

¹² Абу-л-Фазл Байхаки. История Масъуда(1030-1041) М. 1969

¹³ Van Vloten G. Libar Mafatih al-olum explicans vocabula technica scientiarum ... auctore Abu Abdullah Mehammed ibn Ahmad ibn Jasuf al-katib al-Khowarezmi ed. Lugduni Batavorum, 1895

¹⁴ Низомулмулк Сиёсатнома ёки сияр ул мулк. Форс тилидан тарж.сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш.В.Хусайнзода, А.Эркинов. Т.1997

¹⁵ as-Saolibiy Yatimat ad-dahr. Bayrut 1883

ahvoli, dehqonchilik va ma'dan ishlab chiqarish, savdo, u yoki bu hududda ishlab chiqaradigan tovarlar, yerosti boyliklari sanab otilgan. Ba'zi geograflar viloyat va dahalar soliq miqdori, strategik ahamiyatga ega tovarlar va ijtimoiy, statistik, etnografik va tarixiy-madaniy ahamiyatga ega ma'lumotlar beradi.

Bu guruh asarlar qatoriga Ibn Xurdodbeh (IX asr) va Qudama (X asr birinchi yarmi)¹⁶, Ibn Rusto (X asr birinchi yarmi) va Ya'qubi (IX asr), Ibn Faqeh (IX asr oxiri – X asr boshi)¹⁷, Ma'sudiy (X asr) va shuningdek arab geograf olimlari Abo'zaydi Balxi (850-934), Istarxi (IX asr), Ibn Xavqal (X asr) va Muqaddasi (X asr) va boshqalar. Keyingi davr mualliflar asarlari - Sam'oniylar (1113-1167), Yoqut (1178/79-1229) va boshqa olimlarning ma'lumotlari muhim ahamiyatga ega.

Arxeologik izlanishlar natijasida boy moddiy materiallar qo'lga kiritilgan. Ular madaniyatning ko'plab jihatlarini yoritishda muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda manbalardagi malumotlarni iqtisodiy (hunarmandchilik, tog' kon, sug'orish) va ijtimoiy masalalarni yoritishda; moddiy madaniyat (me'morchilik, amaliy bezash san'ati, shaharlar topografiyasi va b.)ni yoritishda muhim hisoblanadi. Numizmatik ma'lumotlar manbalardagi malumotlarni alohida siyosiy tarix, shu jumladan sulolalar shajarasi, alohida siyosiy mulklar mavqeini to'liqroq yoritishga xizmat qiladi.

Somoniylar davri tanga pullarini bir qator numizmatik olimlar tadqiq qilishgan va IX-X asrlar ijtimoiy iqtisodiy hayotni yoritishda muhim ma'lumotlar berishgan. V.G.Tizengauzen¹⁸, P.I.Lerx¹⁹, M.E.Masson, B.D.Kochnev²⁰, Sh.Kamoliddin²¹ va boshqa olimlar Somoniylar davri numizmatikasiga doir asar va maqolalar nashr qilishgan.

¹⁶ Ибн Хурдадбех Китоб масолик ул мамолик. Русча таржимаси Н.Велихонова Боку 1986. Абу Юсуф Яъкуб “Китоб ул-хирож” Э.Фанян фрасузча тажима қилган.

¹⁷ Ибн ал-Факих Китоб ахбор ул-булдон. де Гве томонидан 1885 йил Лейденда чоп қилинган

¹⁸ Тизенгаузен В.Г. О саманидских монетах. – ТВОРАО, т 1, 1855

¹⁹ Лерх П.И. Монеты бухар-худатов. – Спб., 1909

²⁰ Кочнев Б.Д. Нумизматическая история саманидского сановника Куттегина/Хут-тегина (XI в.)//ИЦА, вып. 6, Т.2002

²¹ Камолитдина Ш.С. Медальон Мансура ибн Нуха Т.2010

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: “Шарқ”, 2001- 256 б.
2. Камолиддин Ш. Саманиды из государственности Узбекистана в IX-X вв. LAP LAMBERT Academic publishing GmbH & Co KG. 2012-578b.
3. Камолиддин Ш. Сомонийларнинг келиб чиқиши. Т.2006-32б.
4. Неъматов Н. Давлати Сомониён. Душанбе.: “Ирфон”, 1989-304б.
5. Нигматов Н. Государство Саманидов. Душанбе.: “Дониш”, 1977-278б.
6. Низомулмулк Сиёсатнома ёки сияр ул мулк. Форс тилидан тарж.сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш.В.Хусайнзода, А.Эркинов. Т.: “Адолат”, 1997- 256б.
7. Тарихий манбашунослик. Ўқув қўлланма. Т.: “Фан”, 2006 -314б.